

YASHIL IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISH VA UNI XORIJIY MODELLAR ASOSIDA MOLIYALASHTIRISH

Jamoliddinova Malika Ulug‘bek qizi

*Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti, Kechki ta'lim va magistratura fakulteti
"Korporativ moliya va qimmatli qog'ozlar bozori" mutaxassisligi 1-kurs magistranti*

Annotatsiya: Ushbu maqolada yashil iqtisodiyot tushunchasi, uning global rivojlanish tendensiyalari hamda rivojlangan davlatlarda qo‘llanilayotgan moliyalashtirish modellarining nazariy va amaliy jihatlarini tahlil qilinadi. Xususan, Yevropa Ittifoqi, AQSh, Xitoy va Skandinaviya mamlakatlarida yashil iqtisodiyotni moliyalashtirishda qo‘llanilayotgan yashil obligatsiyalar, ESG-investitsiyalar, davlat-xususiy sheriklik va xalqaro moliyaviy institutlar mexanizmlari o‘rganiladi. Tadqiqot natijalari O‘zbekiston sharoitida yashil iqtisodiyotni moliyalashtirish modelini takomillashtirish bo‘yicha taklif va xulosalarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Аннотация: В данной статье анализируются понятие зелёной экономики, глобальные тенденции её развития, а также теоретические и практические аспекты моделей финансирования, применяемых в развитых странах. В частности, рассматриваются такие механизмы финансирования зелёной экономики, как зелёные облигации, ESG-инвестиции, государственно-частное партнёрство и инструменты международных финансовых институтов, используемые в Европейском союзе, США, Китае и странах Скандинавии. Результаты исследования служат основой для формирования выводов и практических рекомендаций по совершенствованию модели финансирования зелёной экономики в условиях Республики Узбекистан.

Abstract: This article analyzes the concept of the green economy, global trends in its development, as well as the theoretical and practical aspects of financing models applied in developed countries. In particular, it examines such mechanisms for financing the green economy as green bonds, ESG investments, public-private partnerships, and instruments of international financial institutions used in the European Union, the United States, China, and the Scandinavian countries. The results of the study serve as a basis for formulating conclusions and practical recommendations aimed at improving the model for financing the green economy under the conditions of the Republic of Uzbekistan.

Kalit so‘zlar: yashil iqtisodiyot, barqaror rivojlanish, yashil moliya, ESG, yashil obligatsiyalar, xorijiy tajriba, investitsiya modeli.

So‘nggi o‘n yilliklarda jahon iqtisodiyotida ekologik muammolarning keskinlashuvi, tabiiy resurslarning cheklanganligi va iqlim o‘zgarishining salbiy

oqibatlarini iqtisodiy rivojlanishning yangi modelini shakllantirish zaruratini yuzaga keltirdi. An’anaviy iqtisodiy model yuqori iqtisodiy o’sishni ta’minlagan bo’lsa-da, u ekologik barqarorlik va ijtimoiy muvozanatni ta’minlay olmadi. Natijada, yashil iqtisodiyot konsepsiyasi global miqyosda dolzarb yo’nalish sifatida shakllandi.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan ilgari surilgan Barqaror rivojlanish maqsadlari (SDGs) doirasida yashil iqtisodiyot muhim ustuvor yo’nalish sifatida e’tirof etilgan. Jahon banki va OECD ma’lumotlariga ko’ra, ekologik xavflar iqtisodiy barqarorlikka bevosita tahdid solmoqda. Shu sababli, yashil iqtisodiyot nafaqat ekologik, balki iqtisodiy va ijtimoiy barqarorlikni ta’minlovchi model sifatida qaralmoqda.

Mazkur maqolaning asosiy maqsadi – yashil iqtisodiyotning nazariy asoslarini ochib berish, xorijiy davlatlarda qo’llanilayotgan moliyalashtirish modellarini tahlil qilish va O’zbekiston sharoitida ushbu tajribalarni tatbiq etish imkoniyatlarini ilmiy asosda yoritishdan iborat.

Yashil iqtisodiyot tushunchasi va uning nazariy-konseptual mohiyati. Yashil iqtisodiyot zamonaviy iqtisodiy tafakkurning nisbatan yangi, biroq tez rivojlanayotgan yo’nalishlaridan biri bo’lib, u iqtisodiy o’sish, ekologik barqarorlik va ijtimoiy adolat o’rtasida muvozanatni ta’minlashga qaratilgan iqtisodiy model sifatida talqin etiladi. Ushbu konsepsiya XX asr oxiri – XXI asr boshlarida global ekologik inqirozlar, iqlim o’zgarishi va resurslardan haddan tashqari foydalanish muammolarining keskinlashuvi natijasida shakllandi.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti Atrof-muhit dasturi (UNEP) tomonidan berilgan ta’rifga ko’ra, yashil iqtisodiyot – bu inson farovonligini va ijtimoiy tenglikni oshiradigan, ekologik xavflar va tabiiy resurslar tanqisligini sezilarli darajada kamaytiradigan iqtisodiy tizimdir. Ushbu ta’rifdan ko’rinadiki, yashil iqtisodiyot nafaqat ekologik, balki ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarni ham o’z ichiga oladi.

Nazariy jihatdan yashil iqtisodiyot klassik va neoklassik iqtisodiy nazariyalardan tubdan farq qiladi. An’anaviy iqtisodiy modelda asosiy e’tibor yalpi ichki mahsulot (YaIM) o’sishiga qaratilgan bo’lsa, yashil iqtisodiyotda iqtisodiy samaradorlik bilan bir qatorda ekologik barqarorlik va ijtimoiy farovonlik muhim mezon sifatida qaraladi. Shu sababli, yashil iqtisodiyot konsepsiyasi iqtisodiy rivojlanishni “miqdoriy o’sish”dan “sifatli o’sish” bosqichiga o’tkazishni maqsad qiladi.

Yashil iqtisodiyotning muhim nazariy asoslaridan biri — **barqaror rivojlanish konsepsiyasi** hisoblanadi. Ushbu konsepsiya kelajak avlodlar ehtiyojlariga zarar yetkazmagan holda bugungi avlod ehtiyojlarini qondirish g’oyasiga asoslanadi. Yashil iqtisodiyot ushbu tamoyilni amaliy iqtisodiy mexanizmlar orqali ro’yobga chiqarishga intiladi.

- Yashil iqtisodiyotning tarkibiy elementlariga quyidagilar kiradi:
- qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish;

- energiya va resurslar samaradorligini oshirish;
- chiqindilarni kamaytirish va qayta ishlash;
- ekologik toza texnologiyalarni joriy etish;
- yashil bandlikni rivojlantirish.

Mazkur yo‘nalishlar yashil iqtisodiyotning asosiy funksional ustunlari bo‘lib, ular iqtisodiyotning deyarli barcha tarmoqlarini qamrab oladi.

Yashil iqtisodiyotni rivojlantirish zamonaviy global taraqqiyotning eng muhim strategik yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Ushbu modelning ahamiyati faqat atrof-muhitni muhofaza qilish bilan cheklanib qolmay, balki iqtisodiy barqarorlikni ta‘minlash, ijtimoiy farovonlikni oshirish va uzoq muddatli rivojlanish poydevorini mustahkamlashga xizmat qiladi. Shu sababli yashil iqtisodiyot bugungi kunda ko‘plab rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlar iqtisodiy siyosatining ajralmas qismiga aylanmoqda.

Yashil iqtisodiyotning iqtisodiy ahamiyati. Iqtisodiy nuqtai nazardan yashil iqtisodiyot resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish orqali ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytiradi va iqtisodiy o‘sishni yanada barqaror qiladi. An‘anaviy iqtisodiy tizimda iqtisodiy o‘sish ko‘pincha resurslarning ko‘p sarflanishi va ekologik zararlar evaziga ta‘minlanadi. Yashil iqtisodiyot esa “ko‘proq ishlab chiqarish” emas, balki “aqli va samarali ishlab chiqarish” tamoyiliga asoslanadi.

Xalqaro iqtisodiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, energiya samaradorligini oshirish va qayta tiklanuvchi energiya manbalariga o‘tish ishlab chiqarish xarajatlarini uzoq muddatda kamaytiradi. Masalan, energiya tejankor texnologiyalar dastlab katta investitsiya talab qilsa-da, keyinchalik energiya xarajatlarini sezilarli darajada qisqartiradi va korxonalarining raqobatbardoshligini oshiradi. Bundan tashqari, yashil iqtisodiyot innovatsiyalarni rag‘batlantiradi. Yangi texnologiyalar, ekologik toza mahsulotlar va xizmatlarga bo‘lgan talab ilmiy-texnik taraqqiyotni tezlashtiradi. Natijada, iqtisodiyotning yuqori qo‘shilgan qiymatga ega tarmoqlari rivojlanadi.

Ekologik ahamiyati. Yashil iqtisodiyotning ekologik ahamiyati uning asosiy mohiyatini tashkil etadi. Ushbu model atrof-muhitga salbiy ta‘sirni kamaytirish, tabiiy resurslarni saqlab qolish va biologik xilma-xillikni muhofaza qilishga qaratilgan. Iqlim o‘zgarishi, havoning ifloslanishi, suv tanqisligi va chiqindilar muammosi bugungi kunda global miqyosda dolzarb masalalardir. Yashil iqtisodiyot doirasida karbon chiqindilarini kamaytirish, qayta tiklanuvchi energiya ulushini oshirish va ekologik standartlarni joriy etish orqali ekologik xavflar minimallashtiriladi. Bu esa nafaqat tabiatni asrash, balki iqtisodiy yo‘qotishlarning oldini olishga ham xizmat qiladi. Chunki ekologik falokatlar katta moliyaviy zarar va ijtimoiy beqarorlikka olib kelishi mumkin. Shuningdek, yashil iqtisodiyot suv va yer resurslaridan oqilona foydalanishni ta‘minlaydi. Qishloq xo‘jaligida ekologik texnologiyalarni joriy etish hosildorlikni oshirish bilan birga tuproq degradatsiyasining oldini oladi.

Ijtimoiy ahamiyati. Yashil iqtisodiyot ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashda ham muhim rol o'ynaydi. Ushbu model doirasida “yashil ish o‘rinlari” tushunchasi shakllangan bo‘lib, bu ekologik barqarorlikka xizmat qiluvchi sohalarda bandlikni oshirishni anglatadi. Qayta tiklanuvchi energiya, chiqindilarni qayta ishlash, ekologik qurilish va transport kabi sohalar yangi ish o‘rinlari yaratish imkoniyatiga ega. Xalqaro Mehnat Tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, yashil iqtisodiyot rivoji millionlab yangi ish o‘rinlarini yaratishi mumkin. Bu esa ishsizlik darajasini kamaytirish va aholining daromadlarini oshirishga xizmat qiladi. Yashil iqtisodiyot aholining sog‘lig‘iga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Havoning ifloslanishi va suv resurslarining ifloslanishi kamayishi sog‘liqni saqlash xarajatlarining qisqarishiga olib keladi. Natijada, davlat byudjeti va aholi uchun ijtimoiy yuk kamayadi.

Global va milliy darajadagi ahamiyati. Global miqyosda yashil iqtisodiyot iqlim o'zgarishiga qarshi kurashishning asosiy vositasi sifatida qaraladi. Parij kelishuvi doirasida davlatlar karbon chiqindilarini kamaytirish bo'yicha majburiyatlar olgan. Ushbu majburiyatlarni bajarishda yashil iqtisodiyot hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Milliy darajada esa yashil iqtisodiyot davlatning iqtisodiy xavfsizligini mustahkamlaydi. Energiya importiga bog‘liqlik kamayadi, ichki resurslardan samarali foydalanish imkoniyati kengayadi. Shu bilan birga, yashil iqtisodiyot hududlar rivojlanishini muvozanatlashtirishga yordam beradi.

Yashil iqtisodiyot va barqaror rivojlanish o‘rtasidagi bog‘liqlik. Yashil iqtisodiyot barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishning amaliy mexanizmi hisoblanadi. Iqtisodiy o'sish, ekologik muhofaza va ijtimoiy adolat o‘rtasidagi muvozanat ushbu model orqali ta'minlanadi. Shu sababli yashil iqtisodiyot bugungi kunda global rivojlanish strategiyalarining markazida turadi.

Yashil iqtisodiyotni samarali rivojlantirishda moliyalashtirish mexanizmlari hal qiluvchi ahamiyatga ega. Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, yashil iqtisodiyotning muvaffaqiyati bevosita moliyaviy institutlar, davlat siyosati va bozor mexanizmlarining uyg'unligiga bog‘liq. Rivojlangan davlatlar yashil iqtisodiyotni moliyalashtirishda turli modellarni ishlab chiqqan bo‘lib, ularning har biri milliy iqtisodiy tuzilma, institutsional muhit va rivojlanish strategiyasiga mos ravishda shakllangan.

Yevropa Ittifoqi modeli. Yevropa Ittifoqi yashil iqtisodiyotni moliyalashtirish sohasida eng tizimli va institutsional jihatdan rivojlangan modelga ega hudud hisoblanadi. YIda yashil moliya davlat siyosatining ajralmas qismi sifatida qaraladi. 2018-yildan boshlab amalga oshirilayotgan Sustainable Finance Action Plan yashil investitsiyalarni rag‘batlantirishning asosiy huquqiy asosini tashkil etadi. Mazkur modelning muhim jihati — EU Taxonomy tizimining joriy etilishidir. Ushbu tasnif tizimi qaysi iqtisodiy faoliyat turlari ekologik jihatdan barqaror ekanligini aniq belgilab

beradi. Bu esa investorlar uchun shaffoflikni oshiradi va “yashil yuvish” (greenwashing) holatlarining oldini oladi.

Yevropa Ittifoqida yashil iqtisodiyotni moliyalashtirishning asosiy instrumentlari quyidagilardan iborat:

- yashil obligatsiyalar;
- barqaror rivojlanish fondlari;
- Yevropa Investitsiya Banki (EIB) kreditlari;
- davlat-xususiy sheriklik (PPP) mexanizmlari.

Yevropa Investitsiya Banki o‘zini “Yevropaning iqlim banki” sifatida e’lon qilgan bo‘lib, investitsiyalarining katta qismini qayta tiklanuvchi energiya, energiya samaradorligi va ekologik infratuzilmalarga yo‘naltirmoqda.

AQSh modeli. AQShda yashil iqtisodiyotni moliyalashtirish asosan bozor mexanizmlariga va xususiy sektor faolligiga asoslangan. Bu modelda davlat bevosita moliyalashtiruvchi rolini kamroq bajaradi, biroq normativ-huquqiy muhit va soliq rag‘batlari orqali yashil investitsiyalarni qo‘llab-quvvatlaydi. AQSh modelining asosiy xususiyati — ESG-investitsiyalar ning keng rivojlanganligidir. Yirik investitsiya fondlari, pensiya jamg‘armalari va sug‘urta kompaniyalari investitsiya qarorlarini qabul qilishda ekologik, ijtimoiy va boshqaruv mezonlarini faol qo‘llamoqda.

Shuningdek, AQShda quyidagi moliyaviy instrumentlar muhim o‘rin tutadi:

- yashil va iqlim obligatsiyalari;
- venchur kapital orqali yashil texnologiyalarni moliyalashtirish;
- fond bozori orqali ekologik startaplarni qo‘llab-quvvatlash.

AQSh modelining ustun tomoni — innovatsiyalarni tezkor moliyalashtirish imkoniyati, kamchiligi esa davlat tomonidan yagona markazlashtirilgan strategiyaning yetishmasligidir.

Xitoy modeli. Xitoy yashil iqtisodiyotni moliyalashtirishda davlat tomonidan boshqariladigan modelni qo‘llaydi. Ushbu modelda markaziy hukumat va Markaziy bank (Xitoy Xalq Banki) yetakchi rol o‘ynaydi. Xitoyda yashil moliya milliy rivojlanish strategiyasining bir qismi sifatida qaraladi.

Xitoy modelining asosiy mexanizmlari quyidagilardan iborat:

- yashil kreditlash siyosati;
- davlat banklari orqali imtiyozli kreditlar;
- yashil obligatsiyalar bozorini rivojlantirish;
- ekologik loyihalar uchun majburiy standartlar.

Xitoyda tijorat banklariga yashil loyihalarni moliyalashtirish bo‘yicha aniq ko‘rsatmalar berilgan. Shu bilan birga, ekologik zarar yetkazuvchi faoliyat turlari

uchun moliyalashtirish cheklangan. Ushbu model qisqa muddatda katta hajmdagi investitsiyalarni safarbar qilish imkonini beradi.

Jahon moliya bozorida loyihalarni moliyaviy resurslar bilan ta'minlashda yashil moliyalashtirish mexanizmi, xususan yashil obligatsiyalar orqali kapital jalb qilish samarali instrument sifatida shakllanib bormoqda. Jahon banki tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlarga ko'ra, yashil obligatsiyalar dastlab 2010-yilda yuqori karbonat chiqindilarini kamaytirish va iqlim o'zgarishining salbiy oqibatlarini yumshatishga qaratilgan loyihalarni moliyalashtirish maqsadida joriy etilgan bo'lib, qisqa vaqt ichida ushbu instrument loyihalarni moliyalashtirishning muhim manbalaridan biriga aylandi.

2010–2020-yillar oralig'ida yashil obligatsiyalar emissiyasi hajmining keskin oshishi ushbu mexanizmning iqtisodiy va moliyaviy samaradorligini tasdiqlaydi. Xususan, Xitoy ushbu davrda 122 mlrd AQSH dollari miqdorida yashil obligatsiyalar emissiyasini amalga oshirib, loyihalarni moliyalashtirishda ushbu instrumentdan keng foydalangan davlat sifatida yetakchilik qilgan. Yaponiya (21,64 mlrd AQSH dollari), Meksika (11,9 mlrd AQSH dollari), Hindiston (9,3 mlrd AQSH dollari) va Braziliya (7,68 mlrd AQSH dollari) kabi davlatlarda ham yashil obligatsiyalar orqali yirik hajmdagi investitsiyalar jalb qilingan.

1-jadval

2010–2020-yillarda ayrim davlatlarda yashil obligatsiyalar emissiyasi hajmi

Davlat	Emissiya hajmi (mlrd AQSH dollari)
Xitoy	122,0
Yaponiya	21,64
Meksika	11,9
Hindiston	9,3
Braziliya	7,68
Vetnam	1,0
Tailand	0,8

Manba: <https://markets.businessinsider.com> sayti ma'lumotlari asosida tayyorlangan.

Bu ko'rsatkichlar yashil obligatsiyalar orqali loyihalarni moliyalashtirish mexanizmi rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda amaliy jihatdan samarali ekanligini ko'rsatadi.

Yashil moliyalashtirishning tarmoqlar kesimidagi taqsimoti ushbu mexanizmning qaysi yo'nalishlarda yuqori samaradorlikka ega ekanligini aniqlash imkonini beradi. Jahon banki ma'lumotlariga asoslangan tahlillarga ko'ra, yashil obligatsiyalar orqali jalb qilingan moliyaviy resurslarning 52 foizi energetika loyihalarini moliyalashtirishga yo'naltirilgan. Bu holat energetika sohasida qayta tiklanuvchi

energiya manbalari va energiya samaradorligini oshirishga qaratilgan loyihalar yuqori iqtisodiy va ekologik samara berayotganini anglatadi. Qurilish sohasi 15 foiz ulush bilan ikkinchi o'rinda bo'lib, energiya tejamkor bino va inshootlarni barpo etish loyihalarini moliyalashtirishda yashil obligatsiyalarning ahamiyati ortib borayotganini ko'rsatadi.

Transport sektori (12 foiz) va yer resurslaridan foydalanish sohasi (10 foiz) bo'yicha jalb qilingan mablag'lar ekologik transport infratuzilmasini rivojlantirish, yoqilg'i sarfini kamaytirish hamda qishloq xo'jaligida barqaror ishlab chiqarish tizimlarini joriy etishga xizmat qilmoqda. Ushbu tahlillar yashil moliyalashtirish mexanizmi loyihalarni moliyalashtirishda sektorlar bo'yicha muvozanatli va maqsadli taqsimlanayotganini ko'rsatadi.

Xorijiy tajriba bilan bir qatorda, O'zbekiston Respublikasida ham loyihalarni moliyaviy resurslar bilan ta'minlashda yashil moliyalashtirish mexanizmidan foydalanish bosqichma-bosqich rivojlanmoqda. So'nggi yillarda mamlakatimizda yashil suveren va korporativ obligatsiyalar emissiyasi amalga oshirilib, ushbu instrument orqali uzoq muddatli qarz kapitali jalb qilinmoqda. Jumladan, “Navoiy kon-metallurgiya kombinati”, “Agrobank”, “Ipoteka-bank”, “O'zbekneftgaz”, “UzAuto Motors” kabi yirik emitentlar tomonidan chiqarilgan yashil obligatsiyalar loyihalarni moliyalashtirishda yangi moliyaviy imkoniyatlar yaratdi.

Mazkur obligatsiyalar bo'yicha kupon stavkalari, muddatlari va jalb qilingan mablag'larning maqsadli yo'naltirilishi tahlili shuni ko'rsatadiki, yashil moliyalashtirish mexanizmi investorlar uchun barqaror daromadlilikni ta'minlagan holda, emitentlar uchun uzoq muddatli va nisbatan qulay moliyaviy resurslarni jalb qilish imkonini bermoqda. Shu bilan birga, ushbu mexanizm orqali moliyalashtirilayotgan loyihalar ekologik samaradorlikka ega bo'lib, iqtisodiy o'sish va atrof-muhitni muhofaza qilish vazifalarini bir vaqtda amalga oshirishga xizmat qilmoqda.

Xulosa va natijalar: O'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, loyihalarni moliyaviy resurslar bilan ta'minlashda yashil moliyalashtirish mexanizmlari, xususan, yashil obligatsiyalar zamonaviy iqtisodiyot sharoitida samarali va istiqbolli moliyaviy instrumentlardan biri hisoblanadi. Xorijiy davlatlar tajribasi yashil obligatsiyalar orqali ekologik barqarorlikni ta'minlash bilan bir qatorda, iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish va investitsiya muhitini yaxshilash mumkinligini tasdiqlaydi. Statistik ma'lumotlar ushbu instrumentdan eng ko'p foydalanayotgan davlatlar moliya bozorlarida yuqori faollik va barqaror rivojlanish sur'atlariga erishayotganini ko'rsatmoqda.

Tadqiqot natijalari O'zbekiston sharoitida ham yashil moliyalashtirish mexanizmlarini keng joriy etish dolzarb ekanligini asoslaydi. Yashil obligatsiyalar orqali moliyalashtirilayotgan loyihalar atrof-muhitga salbiy ta'sirni kamaytirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish va barqaror iqtisodiy o'sishga

erishishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois, yashil moliyalashtirish instrumentlarini takomillashtirish va ularni moliya bozorida faol qo'llash mamlakatning uzoq muddatli ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta'minlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. **Xushvaqov I. M.** Loyihalarni moliyaviy resurslar bilan ta'minlashda yashil moliyalashtirish mexanizmining samaradorligi // Moliyaviy texnologiyalar ilmiy elektron jurnali. — 2025. — № 6. — B. 53–60. — ISSN 2181-3965.
2. **Wendt K.** (ed.). Green and Social Economy Finance: A Review. — Boca Raton : CRC Press, 2021. — 329 p. — ISBN 978-0-367-34439-9.
3. **Taghizadeh-Hesary F., Hyun S.** (eds.). Green Digital Finance and Sustainable Development Goals. — Singapore : Springer Nature, 2022. — 373 p. — ISBN 978-981-19-2661-7. — DOI: 10.1007/978-981-19-2662-4.
4. **Green Financing Instruments: Annual Report 2021–2022.** — World Bank Group, 2022. — 68 p.
5. **International Capital Market Association (ICMA).** Green Bond Principles. — London : ICMA, 2021.
6. **OECD.** Green Finance and Investment: Mobilising Resources for Sustainable Growth. — Paris : OECD Publishing, 2020. — 144 p. — DOI: 10.1787/3b7f1e95-en.
7. **UNEP.** Global Trends in Renewable Energy Investment. — Nairobi : United Nations Environment Programme, 2021. — 104 p.
8. **World Bank.** Climate Finance Overview. — Washington, DC : World Bank, 2022.
9. **BIS (Bank for International Settlements).** Green Bonds and Sustainable Finance. — Basel : BIS Quarterly Review, 2021.
10. **European Commission.** EU Action Plan on Sustainable Finance. — Brussels, 2019.